XALQ DEPUTATLARI SHEROBOD TUMANI KENGASHINING QARORI

Sherobod tumani, A.Navoiy ko‘chasi 22-uy. 191400, tel.: (+99876) 322-11-26

2022 - yil 4 - iyul VI-51-135-8-119-K/22 Sherobod tuman hokimligi

Xalq deputatlari Sherobod tuman Kengashining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan qarorlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentyabrdagi PF–6075-son “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Sherobod tumani Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentyabrdagi PF-6075-son Farmoni bilan 2021-yil 1-iyunga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Tuman hokimligi Matbuot xizmati (A.Mamayusupov) mazkur qarorni rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e’lonqilingandan keyin kuchga kiradi.

5.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi O.Tursunov zimmasiga yuklatilsin.

Hokim **Davlatov Z.**

Xalq deputatlari Sherobod tuman
Kengashining
2022 yil 4 iyuldagi
VI-51-135-8-119-K/22-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari tuman Kengashining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgana yrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Halq deputatlari Sherobod tuman Kengashining 2015-yil 29-dekabrdagi V-X/28-sonli Sherobod tumani mahalliy budjetining 2016-yilgi parametrlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. Halq deputatlari Sherobod tuman Kengashining 2016-yil 30-dekabrdagi V-XXIII/68 -sonli Sherobod tumani mahalliy budjetining 2017-yilgi parametrlari to‘g‘risida”gi qarori.

3. Halq deputatlari Sherobod tumagn Kengashining 2017-yilgi 31-dekabrdagi V-XXXVI/117-sonli Sherobod tuman mahalliy budjetining 2018-yilgi parametrlari to‘g‘risida”gi qarori.

4. Halq deputatlari Sherobod tuman Kengashining 2018-yil 27-dekabrdagi V–XXXXIV/167-sonli Sherobod tumani mahyalliy budjetining 2019-yilgi parametrlari to‘g‘risida”gi qarori.

5. Halq deputatlari Sherobod tuman Kengashining 2019-yil 18-dekabrdagi V-XXXXXVI/246-sonli Sherobod tumanining 2020-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

6. Halq deputatlari Sherobod tuman Kengashining 2020-yil 28-dekabrdagi VI–22/116-sonli Sherobod tumanining 2021-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.